

**ONA TILI DARSLARIDA YANGI INTERFAOL METODLAR  
YARATISH VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARASI**

**Diloromxon Mahmudova**

*Farg'ona viloyati Quva tumani 25-umumta'lim maktabi*

*Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda yangi metodlar yaratish hamda ayni pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim samaradorligini oshirish, dars jarayonida ta'limiy o'yinlarda o'quvchilarni faolligini oshirib borish*

***Kalit so'zlar:** ta'limiy o'yinlar, metod, "U" undoshi metodi, innovasion texnologiyalar, Interfaol metodlar.*

Bugungi kunda dunyoning barcha rivojlanayotgan davlatlari hozirgi globllashuv vaqtida o'z oldiga hamma bolalarni umumiy o'rta ta'lim jarayoniga to'liq qamrab olish masalasini qo'ygan bir vaqtda, mustaqil O'zbekistonimizda ushbu muammo allaqachon muvaffaqiyatli hal etilgan bo'lib, uzluksiz ta'limda masofaviy ta'limni qo'llab, o'quvchilar bilimni baholashda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Bugungi kunda navbatdagi ustuvor vazifa sifatida, sifatli ta'lim-tarbiya berish, ta'limning samaradorligini oshirish masalasi qo'yildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik,

yonaltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun umumta'lim maktablarida zamonaviy o'qitish metodlari interaktiv metodlar, innovasion texnologiyalarning orni va roli benihoya kattadir.

Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Darslarni innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida tashkil etish ijobiy natija beradi, chunki o'qituvchi innovasion faoliyat yuritgandagina ta'lim mazmuni o'zgaradi. O'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda ona tili darslariga interfaol metodlar va didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan bir qatorda ularni fanga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi.

Bugungi rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizda o'quvchi-yoshlarni ta'limga to'g'ri yo'naltirish juda katta ahamiyatga ega. Zero, yurtimizning kelajagi yoshlarimiz qo'lida. Ma'lumki, o'quvchilarimizning ko'p vaqtlari maktabda o'tadi. Ularning ta'lim olishini to'g'ri tashkil etish esa, biz o'qituvchilarning zimmasidagi yuksak burchdir.

Ana shunday mas'uliyatli kasb egasi sifatida ona tili ustozlari ham yangi metodlar va texnologiyalar ustida ish olib bormoqdalar. Biz ham sizga ana shunday ishlardan taqdim etmoqdamiz. Ulardan biri *“U unlisi” texnologiyasi* deb nomlanadi. U o'quvchilar bilan guruhli ishlash jarayonida qo'llaniladi. Uni yaratishda oddiy tilshinoslikka oid atamalardan foydalanilgan va asosan 9-10-11-sinflar uchun. Buning sababi shuki, yuqori sinf o'quvchilariga o'tiladigan mavzulardan yig'ilgan manbalar mavjud.

***1-savol*** Yusuf Xos Hojib hazratlari “Qutatg'u bilig” asarida uni shunday ta'riflaydi:

*“U hovlida (ya'ni qafasda) yotgan arslon kabidir*

*Ey, qafasdagi (makkor) vahshiy boshingni yeydi.”*

diqqat savol u nima edi?

**2-savol** Tilning *eng kichik* bo'linmas qismi?

**3-savol** *To'satdan* so'zining sinonimi?

**4-savol** U shunday gap bo'lagiki, doimo kesim bilan birga bevosita ba'zan bilvosita birga bo'lishni xohlaydi, kim bilan, nima bilan so'rog'iga javob bo'adi. Savol u qaysi gap bo'lagi?

**5-savol** *Non-pon, choy-poy* kabi ot so'z turkumiga kiruvchi so'zlarning tuzilishiga ko'ra turini ayting?

**6-savol** *Qo'lin cho'zar savob uchun har dam ular, Sahiylikda barchadan ham bardam ular.* Ushbu parchada qaysi kelishikning qisqargan shakli mavjud?

**7-savol** *Ular jami o'nta askar, qo'rg'onini mahkam tutar, Bu dunyoda bo'lmasa gar, millionlab xato o'tar.* Topishmoqning javobini toping?

<b>T</b>														
<b>T</b>														
<b>T</b>														
<b>T</b>														
<b>T</b>														
<b>T</b>														
<b>T</b>														

Ikkinchisi esa “*U unlisi*” texnologiyasi deb nomlanadi.

1. *Tovush* so'zining ma'nodoshi qaysi?
2. *Otasi bukri xo'ja, Onasi yoyma chalpak, Bolasi shirin-shakar.* Topishmoqning javobi nima ?

3. U gapning boshida ham, o'rtasida ham va oxirida ham kelishi mumkin. U nutq qaratilishiga bog'liq hodisa ?

4. Bo'g'inning miqdori nimaga bog'liq?

5. *Muhayyo, Surayyo, Rano, Muqaddas,*

*Ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas.* Ushbu misralarda qanday sintaktik bo'lak mavjud?

6. Ular o'zi jamlab kelayotgan so'zdan keyin kelsa tire, oldin kelsa ikki nuqta qo'yilishi shart xo'sh ular o'zi nima?

7. Tilshunoslikda shunday bo'lim borki, undagi 5tasnif : ular ish qog'ozlari-yu telavediniya, darsliklar-u qo'llanmalar, badiiy asarlar-u ogzaki suhbatlarni hisobga olgan holda yaratilgan . Savol uni toping?

U																
U																
U																
U																
U																
U																

Keyingi yaratgan she'rimiz esa *“So'z yasovchi qo'shimchalar”* mavzusi uchun tayyorlangan. Bunda she'rning ichidan 5-6-sinflarda **“Kim ko'p yasovchi qo'shimcha topa oladi?”** metodi orqali mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

**Bolaligimga**

Quvnoq hayol*parast*, totli damlarim,  
Tizgin*siz* o'yinlar, berkinma*choqlar*,  
Rang*dor* ertaklarga qorishgan hayot,  
To'zg'*in* bolaligim, shoshqin o'rtoqlar.

Adoq*siz* mehr bilan aytilgan alla,  
Onam quchog'*ida* iliq baxt tafti,  
Duogo'*y* buvimlar, bobomlar qani?  
Chopqir bolaligim, o'zing jannati.

Senga berar edim so'ngs*siz* savollar,  
Shodon, baxtli boqar edim osmonga,  
G'amxo'r edi hatto oppoq bulutlar,  
Kapalakdek uchar edim har yonga .

Bilimga o'ralgan maktab quchog'*i*,  
Go'yo seni unda qoldirib ketdik,  
Birinchi muhabbat, go'zal ishq chog'*i*,  
Bunchalar tez oson seni tark etdik.

Nega bolaligim tashlading, ketding?  
Bugun yuragimni g'ashlading, ketding.

Bu she'rni yaratishdan maqsadiz: morfemika, ya'ni asos va yasovchi qo'shimchalar mavzusini yanada qiziqarli tashkil etishdan iborat

Bundan tashqari so'z yasovchi qo'shimchalarni tushirib qoldiramiz va o'quvchilardan she'rda tushirib qoldirilgan qo'shimchalarni tiklashlari aytiladi, bu metod o'quvchilarda tez fikrlash qobiliyatini shakllantirish, yangi so'z yasash orqali lug'at boyligini o'stirish va o'tilgan mavzuni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu metodlardan ona tili darslarida foydalanish o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi. O'z vaqtida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida samimiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonlarida turli xil ko'rinishlarda kechadi. O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga

ega bo'ladi. Axborat berish, olish va qayta ishlash, o'zaro muloqatga kirish, fikr bildirish, fikr almashish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: Sharq, 1997. 20-29 betlar. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,- Xalq ta'limi, 1998, 1-son.
2. "Tilshunoslik atamalarining izohli lug'ati". N.Uluqov. Namangan
3. "Darsda hammasi bo'lmasa ham pedagogikaning asosiy qismi markazlashgan". 1971. 149
4. Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). THE ROLE OF HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF THE TURKISH EMPIRE. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(10), 25-31.
5. Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.